

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Axmedov Nabijon Aman O'g'li

Sayxunobod tumani 2- sonli kasb- hunar

maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim samaradorligi oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va axborot texnologiyalarining afzalliklari xususida so'z yuritiladi. Tarix darslarini tashkil etishda o'quvchilarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlariga ajratish, tarix darslarida zamonaviy usullardan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni noan'anaviy dars usullaridan foydalanib qo'llash, ta'lim sifatini ta'minlash va uning tarbiyaviy jihatlarini kuchaytirish, darslarda mazmunan bir- biriga yaqin yoki aralash tushunchalar yordamida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi hamda muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabi xususiyatlar ochib beriladi. Tarix darslarida "Juftini top" o'yini, «Tarozi» texnologiyasi va "Raqamli tarix" uslublaridan qanday foydalanish to'g'risidagi bilimlar maqolada yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, "Juftini top" o'yini, «Tarozi» texnologiyasi, pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy dars usullari, Argument, Kontrargument, "Raqamli tarix" ta'limiy o'yini.

“Eng katta boylik – bu aql- zakovat va ilm,
Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya,
Eng katta qashshoqlik – bu bilmsizlikdir.”

(Shavkat Mirziyoyev) [1, 22- bet]

Yurtimiz kelajagi, uning taraqqiyoti bugungi o'quvchilarning qanday tarbiyalanayotganligi, zamonaviy bilim va kasb- hunarni egallashga layoqati bilan o'lchanadi. Davlat mustaqilligini o'z qo'liga olgan ozod, hur O'zbekistonda Vatan, istiqloq taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo'lida. Mustaqillikni asrab- avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas'uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifaning qay



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan, yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liq.

Tarix darslarida zamonaviy usullardan foydalanish sinf muhitini o'zgartiradi, mavzu qanday o'rganilishi kerakligini belgilab beradi, har bir o'quvchini faollashtiradi. Bugungi kunda o'qituvchi o'qitish uchun faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olishi va o'quvchini bevosita mustaqil bilim olishga o'rgatmog'i zarur. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, uning chuqur bilimi, odob- axloqi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy usullardan foydalanib dars berishda o'qituvchi mohirlikdan ijodkorlikka intilishi va bu bilan ta'lim sohasi rivojiga hissa qo'shmog'i talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda o'z kuchlariga ishonch hosil qilishlari uchun imkon yaratish, sinfdagi o'quvchilar o'rtasida do'stlik, o'zaro hamkorlik aloqalarini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi.

Tarix fanida integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda shaxsga moslangan yo'nalish faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat berishni nazarda tutadi. Bunda uning shaxsiy fazilatlari, qobiliyatlari alohida ko'rsatiladi, uning qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda "**Atamalar izohi**", «**Juftini top**», «**Aql charxpalagi**», kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin davomida diqqat -e'tibor birgina bolaga qaratiladi. (Masalan, har bir bola o'z ismining bosh harfiga atab biror bir atamani aytadi.).

"**Juftini top**" o'yinida o'quvchilarga savollar va ularning javoblari yozilgan tarqatmalardan 5 tadan tarqatiladi. 10 nafar o'quvchi tarqatmalar asosida savollarning to'g'ri javoblari bilan juftlashishlari kerak. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirish nazarda tutiladi. Shu munosabat bilan bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z ustida ishlashi va turli davrlarni qiyoslash qobiliyatini shakllantirish lozim. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabi. Quyida sizlar uchun hozirgi zamonda innovatsion dars o'tish usul va uslublaridan misollar keltirilgan.

«**Tarozi**» **texnologiyasi**. Mazkur texnologiya munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'l keladi. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizatsiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu texnologiya dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qiladi, munozara madaniyatiga o'rgatadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

«Tarozi» texnologiyasi o'quv materialini o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Ammo u o'tilgan materiallar bo'yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o'qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o'rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi. Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

Mavzu turli nuqtai nazarlarning to'qnashuviga imkoniyat beruvchi hamda ulardan birortasiga ham imtiyoz bermaydigan tasdiqdir. Mavzu shunday tanlanishi kerakki, u o'rganilayotgan mavzuning barcha qirralarini ochishi, o'quvchilarning axborot qidirish hamda izlanuvchanlik faoliyatlarini rag'batlantirsin.

Asosiy tushunchalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Argument – bu o'z nuqtai nazarini tasdiqlashga olib keluvchi asosli dalil, g'oya, mulohazadir. Dalillash aniq, mantiqiy, asoslangan bo'lishi, faktlar, sharhlar, mulohazalar, isbotlar, misollar, iqtiboslar, manbalarga, obro'li guvohnomalarga havolalar va boshqalar bilan quvvatlangan bo'lishi kerak.

Kontrargument (qarshi dalillash) – bu raqibning dalillarini rad etish bo'lib, u dalillashga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. To'g'ri tanlangan kontrargument raqibning nuqtai nazarini zaiflashtirishi hamda o'zining himoya yoki rad etish chizig'ini mustahkamlashi lozim.

Sonlar ishtirokidagi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yini.

O'quvchilaringiz tarix fanida berilgan sonlarni yodlashga erinchoqlik qilayaptimi yoki qiynalayaptimi? Unda o'quvchilarni qiziqtirishning samarali yo'llarini havola etamiz. Bizga ma'lumki tarix fanida har bir mavzuda tarixiy yillar, sonlar berilgan bo'lib, ularni to'liq eslab qolishga o'quvchilar qiynalishadi. Agarda o'quvchiga mavzuda berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, axborotni o'rganib kelish topshirig'i berilsa, to'liq barcha yillar, sonlar bilan bog'liq voqealar, axborotni o'quvchi aytib bera olmaydi. Savol tug'ilishi mumkin. Xo'sh, unda qanday qilib tarix darsligida berilgan yillar, sonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni to'liq eslab qolish mumkin: Birinchi navbatda, o'quvchining nuqtayi nazarida zerikarli hamda soni jihatidan juda ko'p bo'lib tuyilgan tarix darslaridagi sonlarni, yillarni qiziqarli, jozibali qilib ko'rsatib beruvchi turli xil ta'limiy o'yinlar orqali qiziqtirish kerak. Bunda tarix fani o'qituvchisi yaratgan qiziqarli boshqotirmalardan iborat "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinidan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yini quyidagicha o'tkaziladi: Geometrik shakllarda berilgan tarixiy voqealarning sodir bo'lgan sanalari, statistik ma'lumotlar bilan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bog'liq bo'lgan sonlar aniqlanadi va mental arifmetika usulida (amallarni noodatiy usullarda hisoblash) shakllar hisoblab chiqariladi. Topilgan noma'lum son izohlanadi. Tarix darslarida o'quvchilarning matematik savodxonlik, fan- texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini mavzuni mustahkamlash va takrorlash vaqtida o'quvchilar yoki guruhlar bilan ishlashda qo'llanishi maqsadga muvofiq.

"Raqamli tarix" ta'limiy o'yinining oltin qoidasi: Takrorlash barcha ilmlarning onasidir. Takrorlash barcha fanlar uchun birdek muhim hisoblanadi. Ammo tarix fanida ma'lumotlar hajmi juda kattaligini hisobga olsak, mavzularni ma'lum vaqt oralig'ida qaytarib turish judayam zarur.

Qiziqarli boshqotirmalardan iborat bo'lgan "Raqamli tarix" ta'limiy o'yinini tarix darslarida qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Tarix fanini o'rganishning eng murakkab tomonlaridan biri hisoblangan sanalar va statistik ma'lumotlarni o'quvchilarni qiziqtirgan holda ularning xotirasida saqlab qolishida yordam beradi;
- Xayolan davrlararo sayohat paydo bo'ladi;
- Tarixiy voqealar qaysi davrda yuz berganligini izohlay olish ko'nikmasini shakllantiradi;
- Matematik savodxonlikni oshirishga yordam beradi

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishni bilgan, tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi. Muxtasar aytganda, Vatan tarixi talaba-o'quvchilarda xalqning o'tmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi. Bu o'z navbatida yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishga undaydi.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm- fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. [1, 224- bet]

O'zbekiston tarixi talaba o'quvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o'rgatadi. Bu o'z



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlarini, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga sivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. 2022 yil.
2. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma.
3. Zamonaviy dars. J.G'.Yo'ldoshev va boshqalar. Toshkent 2007-yil.
4. Toshev S. Tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. Science and Education, 1(Special Issue), 6 (2020).

Internet saytlari

5. www.tdpu.uz
6. www.pedaeog.uz
7. www.ziyouz.com

